

Ekoshaharlarni Loyihalashning Zamonaviy Tajribalari Va Arxitekturadagi Ekologik Standartlar Orasidagi O'zaro Bog'liqlikni Aniqlash

Abdusamatova Lola Xudoynazarovna

Jizzax Politehnika Instituti "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Tabiiy muhit holatining yomonlashishi yangi turdagi shahar shakllanishlari, ekologik qishloqlar, ekologik tumanlar, ekologik shaharlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Binolarning atrof-muhitni sertifikatlashning jadal rivojlanishi, shahar talablarini yaxshilash va ekotizimga texnogen bosimni kamaytirish uchun shahar maydonlarini shakllantirishda ekologik standartlarning rolini aniqlash zarurligini belgilaydi. Ekologik sertifikatlashning muhandislik-texnik yo'nalishi aniqlandi. Barqaror me'moriy va shaharsozlik makonini shakllantirishda ekologik standartlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ekoshahar, ekostandart, landshaft, uyg'unlik, ekologik ustuvor tamoyillari.

Kirish.

Katta sanoat markazlarining qurilishi va shahar atrofidagi keng territoriyalarning urbanizatsiyalashuvi natijasida shaharning tabiiy muhitdan ajralib 40 qolayotganligi muammosi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. XX asrning o'rtasi va oxiridagi noqulay ekologik ahvoldning ro'y berishi, arxitekturaviy shaharsozlik muhitning uzoq davom etgan evolyusiyasi natijasida kichik aholi punktlarining katta shahar aglomerasiyalariga aylanishi, insoniyatni yangi tipdagi shaharlar shakli - ekoshahar, ekojoylashuv, ekotumanlar yaratishiga olib keldi. Insonlarning tabiat bilan yaqinlashishga intuitiv intilishi 1960-yillarda katta sanoat markazlaridan uzoqda joylashgan birinchi ekologik toza joylashuvlarni tashkil etilishiga sabab bo'ldi. 1960- yillarda arxitekturaviy ekologiya nazariyasi - arkologiya rivojlanadi. Paolo Soleri va Pol - Jak Griyo kabi arxitektorlar tabiatni shahar strukturasi modelini, shaharni esa – tabiat va inson orasidagi muhim bo'g'in sifatida ko'rishadi [1, s 41.]. 1970 yillardagi energetika krizisi insoniyatni qiyin tiklanuvchi foydali qazilmalardan foydalanishga boshqacha munosabatda bo'lishni va o'zining atrofida ustivor arxitekturaviy-shaharsozlik muhitni tashkil etishni talab qildikim, kelajakda alternativ energiya manbalaridan faol foydalanuvchi eksperimental rayonlar qurilishi va qurilish joyining tabiiy potentsiali hisobga olinadi.

Materiallar.

Yer sharidagi ekologik halokat xavfi shaharning tabiatga nisbatan foydalanish munosabatini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi. Shuning natijasida shaharning yangi turi - ekoshahar paydo bo'ldi. «Mutaxassslarning fikricha, 20-30-yilga kelib. Yer aholisining 60% shaharlarda yashaydi. Ammo shaharlarning o'sib borishi anchagina negativ jarayonlarga olib keladi, chunki shaharlar, ular bilan birga odimlashi kerak bo'lgan infrastrukturasi, tezroq rivojlanadi. Tuproq, havo ifloslanadi, suv manbalari kamayadi» [2 ,s.2.]. Tezkor jahon ekologik harakati va jahon global ekologik halokati muammolarini Yevropa rivojlangan mamlakatlarining tushunib yetishi shunga olib keldiki, XXI asr bo'sag'asida qurilishda ekologik standartlar ishlab chiqildi: BREEAM (Buyuk Britaniya, 1990 y.); LEED (AQSh, 1993 y.); DGNB (germaniya, 2009 y.); SB-Tool (Kanada, 2007 y.); CASBEE (Yaponiya, 2011y.); Green star (Avstraliya, 2003 y.); Three Star(Xitoy,2007y.); SBAT (Janubiy Afrika, 2010); HQE (Fransiya); Zelyonyy standart (Rossiya, 2011 y); NP SPZS 1.1. M -

2011 (Rossiya, 2011 y.). Ekostandartlar, loyihaning sifat ko'rsatkichi va ekoustivor arxitekturaviyshaharsozlik muhit yaratishning boshqaruvchisi bo'lib, ekobinolarni loyihalashda 41 dastur bo'lib xizmat qiladi. Dunyodagi noqulay ekologik ahvolni hisobga olib, yaqin kelajakda bino va shaharlarning ekosertifikatlash, O'zbekistonda ham, hozir 17day tavsiyanomalar shaklida emas, balki majburiy bo'lishi kutilmoqda.

Tadqiqot va usullar.

«An'anaviy zamonaviy shahar biosfera va bioregion bilan ziddiyatda, faqat iste'molchi va foydalanuvchi xarakterga ega bulib, atrof muhitni ifloslaydi. U ekotizimga negativ ta'sir ko'rsatishdan tashqari, uning boshqa komponentlari bilan bog'lik emas» [3, s.5]. Shuning uchun ekologik standartlar talablarini mukammalashtirish maqsadida, shaharsozlik muhitlarini shakllantirishda, ekologik standartlar rolini ajratib ko'rsatish ehtiyoji mavjud. Texnik progress va urbanizasiyaning tez o'sib borishi (XIX asr boshi) insonda shahar texnogen strukturasi yashil ko'chatlarni o'tkazish orqali tabiiy muhitga qaytish zarurati tushunchasini shakllantirdi. Inson tafakkurida arxitekturaviy muhitni shakllantirishning boshqacha, inson biologik va emosional holatiga zararsiz bo'lgan, sog'lom atmosfera bilan to'ldirilgan holda tashkil etish tushunchasi paydo bo'ldi.

Natijalar.

Djon Ryoskin, XIX asrning mashhur ingliz yozuvchisi, san'at arbobi va katta sanoat shaharlariga qarshi bo'lgan inson shunday yozgan: «Kuch va bilim to'plash uchun biz shaharlarda yashashga majburmiz, ammo bir-birimiz bilan muloqotda bo'lishimiz tabiat bilan muloqotning o'rnini bosolmaydi.....» [4, 44b.]. Ryoskin, shahar muhitida «kompozision pauza»larni bog', park, alleya va shunchaki qurilishlar kamroq bo'lgan territoriya shaklida yaratish kerak, deb hisoblar edi. Ushbu fikr keyinchalik «shahar bog'» kabi shaharsozlik konsepsiyasida o'z aksini topdi. «Yashil» shaharlarning loyihalaniishi va qurilishi (1950-60-yillar) bilan parallel ravishda asosan Yevropa mamlakatlarida arxitektura va qurilishdagi zamonaviy ekostandartlarga baza bo'lib xizmat qilgan, ekologik standartlar joriy etildi. Ekologik standartlar joriy etilmasdan oldin 1970 dan 1990 yilgacha shakllangan dastlabki ekologik joylashuvlarda, tabiiy muhitga zarar yetkazmasdan, injener texnik yechimlarni kam ishlatgan holda ekologik tadbirlardan foydalanilgan. Ekologik hamjamiyatlarni yaratilishi asosida, ishtirokchilarning tabiat bilan xayrixoh o'zaro ta'sir g'oyalari bilan yo'g'rilgan madaniy va ma'naviy qadriyatlar yotardi. Yashash punkti yoki shahar rayonlarini loyihalashda ekologik tamoyillarning joriy etilishi, alohida inshootni yaratishdan ko'ra, tabiiy resurslarni tejash va ekologik ahvolni 42 yaxshilash nuqtai nazaridan, ancha katta samara beradi. «Ko'rgazmali enegiya tejoychi posyolok yo yashash rayonini qurishdan maqsad-energiya tejoychi texnologiyalarni real sharoitda, ekologik va sosial aspektlar bilan o'zaro bog'liklikda, samaradorligini ko'rsatishdan iborat» [4 3b.]. Ekologik yashash rayonlarini loyihalash va qurishda, shaharliklar hayoti sifatini oshiruvchi ifloslangan, tashlandiq sanoat territoriyalarining ekologik reabilitasiya qilish, avtomobil transportini cheklash va ekotransportdan foydalanish tavsiya etiladi. XX asr oxirida xalqaro shaharsozlik amaliyotida ekoshaharlarning qator loyihaviy, ba'zida taxminiy.

Muhokamalar.

Ustivor arxitekturaviy-shaharsozlik muhitni shakllantirishda ekologik standartlarni mukammallashtirishdagi tavsiyalar sifatida kuyidagilarni ajratish mumkin: alohida bino atrofini emas, balki butun shahar muhitini majburiy tizimlangan ko'kalamzorlashtirish talablarini joriy etish; muhandislik jihozlari va boshqarish tizimini avtomatlashtirishga tegishli ekostandart talablarini minimallashtirish; jamiyatning sog'lom rivojiga olib keluvchi, insonlar fikri va faoliyatini tabiat bilan uyg'unlashgan yuksak sifatli hayot muhitini yaratishga sosial-psixologik yo'naltirilgan muhitni ekologiyalash; shaharning va arxitekturaviy-qurilish ekologiyasi imkoniyatlarini hisobga olib, ekoustivor arxitekturaviy-rejaviy yechimlariga tegishli talablarni oshirish.

Xulosa.

Ekostandartlar maksimal ball miqdoriga erishish maqsadida bir xil tipdagi yechimlarni tirajlanib, ko'payib ketishiga olib kelmasligi kerak. Ular jamiyatda ajoyib, kishi diqqatini tortuvchi, individual, tabiat uchun zararsiz, mavjud shaharsozlik holatiga qo'llash mumkin bo'lgan, yashash muhitlarini yaratishga olib kelishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Klochkova O.N., Konov V.Yu., Mosin V.O., Pipunьrov P.V. "Sivilizasion rivojlanishning tarixiy shaharsozlik bosqichlari–shaharsozlikdagi prognozlar asosidir". Saratov SGTU bosmaxonasi, 2011–64 b.
2. Sokolov K. Ekoustivor shahar Symbio City // "Ekologiya va hayot" oynomasi ANO/NP SPZS bosmaxonasi №3. 43
3. Muldagaliyeva Y.O. "XX–XXI asrlar shahar- Проблемы архитектуры і stroitelstva. №2, 2015 g. 18 sozlik nazariyasida "Ekopolis" tushunchasining evolyusiyasi. // "AMIT" xalqaro elektron ilmiy– o'quv oynomasi/
4. Savarenskaya T.F. XVII–XIX asrlarda G'arbiy Yevropa shaharsozligi.–M., Stroyizdat, 1987–191 b. 5. Tabunshikov Yu.A. Energosamarador yashash rayonlarini shakllantirish tamoyillari. / "AMIT" xalqaro elektron ilmiy–o'quv oynomasi.
5. Qizi, S. Y. O., & Xudoynazarovna, A. L. (2020). Analysis of architectural and compositional solutions of the original buildings and structures built around Samarkand and Bukhara. In *Colloquium-journal* (No. 24 (76), pp. 5-6). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.
6. XUDOYNAZAROVNA, A. L. Analysis of Architectural and Town-planning Features of Samarkand That Have a Historical Background. *JournalNX*, 6(09), 217-220.